

MOLIYAVIY HISOBOTLARNI XALQARO STANDARTLARGA MUVOFIQLASHTIRISH

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Toshkent shahri
katta o'qituvchi Phd **Abdullayeva Nilufar Javdat qizi**
ORCID:0000-0001-7456-7403*

Annotatsiya. Xalqaro miqyosda chuqurlashib borayotgan iqtisodiy inqiroz iqtisodiyotning barcha tarmoqlariga ta'sir ko'rsatmoqda. Bunday sharoitda aholining barqaror o'sishi, iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga erishish, aholi farovonligini ta'minlash, doimiy ish o'rinlari yaratish kabi masalalar kun tartibidan o'rin olgan. O'z navbatida, mamlakatimizda buxgalteriya hisobi va hisobot tizimini xalqaro moliyaviy hisobot standartlari talablariga moslashtirish iqtisodiyotni rivojlantirishning asosiy omillaridan biridir. Yuqoridagi talablarga muvofiq, ushbu maqolada men milliy va xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga muvofiq moliyaviy vositalarni hisobga olishdagi farqlarni ko'rib chiqdik.

Kalit so'zlar: xalqaro standartlar moliyaviy hisobot, xalqaro sertifikatlash, investitsion siyosat, iqtisodiy inqiroz.

HARMONIZATION OF FINANCIAL STATEMENTS TO INTERNATIONAL STANDARDS

*Tashkent State University of Economics
Tashkent city, Republic of Uzbekistan
Senior Lecturer Phd **Abdullayeva Nilufar Javdat qizi***

Annotation. The deepening economic crisis on an international scale is affecting all sectors of the economy. In such conditions, issues such as sustainable

population growth, achieving sustainable economic development, ensuring the well-being of the population, and creating permanent jobs are on the agenda. In turn, adapting the accounting and reporting system in our country to the requirements of international financial reporting standards is one of the main factors for economic development. In accordance with the above requirements, in this article I examined the differences in accounting for financial instruments in accordance with national and international financial reporting standards.

Keywords: international standards financial reporting, international certification, investment policy, economic crisis.

O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora tadbirlar to‘g‘risidagi qarorida aksiyadorlik jamiyatlari, tijorat banklari, sug‘urta tashkilotlari va yirik soliq to‘lovchilar toifasiga kiritilgan yuridik shaxslar uchun 2021-yil yakuniga qadar buxgalterlarni xalqaro sertifikatlash doirasida “MHXS bo‘yicha moliyaviy hisobot” fanini muvaffaqiyatli topshirganligi to‘g‘risida hujjatga yoxud “Sertifikatlangan xalqaro professional buxgalter (CIPA)”, “Sertifikatlangan diplomli buxgalter (ASSA)”, “Sertifikatlangan jamoatchi buxgalter (SRA)” va “Xalqaro moliyaviy hisobot bo‘yicha diplom (DipIFR)” sertifikatlaridan (keyingi o‘rinlarda – xalqaro buxgalter sertifikati) biriga ega kamida uch nafar mutaxassis miqdorida MHXSni sifatli qo‘llash uchun yetarli bo‘lgan buxgalteriya xizmati xodimlari bilan ta‘minlanishi natijasida yurtimizda ushbu yo‘nalishda ham jiddiy ishlarga qo‘l urilayotganidan dalolat.

Bunday imkoniyatga faqat moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini (MHXS) tan olish va unga muvofiq holda hisobotlar tuzish orqali erishish mumkin. Buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi qonunning yangi tahririda ham buxgalteriya hisobi sub’ektlari belgilangan tartibda MHXSlarni qo‘llash mumkinligi e‘tirof

etildi. MHXSlarni qo'llash zaruriyati quyidagi omillar bilan belgilanadi: – turli mamlakatlarda investorlar va aksionerlar potensial kompaniyalarning bir xil tamoyillar, ya'ni taqqoslanuvchanlik asosida tayyorlangan moliyaviy hisobotni yaxshiroq tahlil qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar; – turli mamlakatlarda turli fond birjalariga ularning har biriga o'sha mamlakatning standartlari asosida tuzilgan moliyaviy hisobotdan ko'ra hammasi uchun yagona tan olinadigan bitta moliyaviy hisobotni tuzish maqsadga muvofiqdir. Natijada hisobotni tuzish xarajatlari qisqaradi va kapitalni jalb qilish imkoniyatlari kengayadi. Xalqaro moliyaviy sekin xalqaro standartlarga yaqinlashmoqda, ammo moliyaviy investitsiyalarni hisobga olishda sezilarli tafovutlar mavjud.

Buxgalteriya hisobi xalqaro standartlari qo'mitasi (IASC) – butun dunyodagi buxgalteriya hisobi sohasi faoliyatidagi vakillardan iborat a'zolari birlashtirgan, hukumatga oid bo'lmagan xalqaro buxgalteriya hisobi tashkiloti bo'lib, uning asosiy maqsadi moliyaviy hisobotlarni tayyorlash uchun buxgalteriya hisobining xalqaro standartlarini ishlab chiqish, qabul qilish va doimiy takomillashtirib borish hisoblanadi.

IASC bosh qarorgohi London shahrida joylashgan. Bu xalqaro tashkilotning Kengashiga global tashkilot va kompaniyalarda, dunyo banklarida katta mansablarda ishlagan yuqori obro'-e'tibor va malakaga ega bo'lgan mutaxassislar jalb qilingan.

Davlatning investitsion siyosati umumiy iqtisodiy siyosatning eng muhim tarkibiy qismidir. Bu kapital qo'yilmalarni ko'paytirish, ularning tarkibini optimallashtirish va samaradorligini oshirish bo'yicha amalga oshiriladigan maqsad, vazifalar, yo'nalishlar va tadbirlar majmuidir.

O'zbekiston moliya bozorining globallashtirish bosqichida bo'lib, milliy tovar, mehnat bozorlari, shuningdek, valyuta va moliya bozorlari o'rtasida o'zaro bog'liqlik mavjud.

Ayni paytda o‘zimizda aksiyalari sotilayotgan kompaniyalar bir vaqtning o‘zida ham milliy buxgalteriya hisobi standartlari, ham moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari bo‘yicha hisobot berilmoqda. Bundan bilish mumkinki, taqdim etilgan moliyaviy natijalar bir-biriga mos kelmaydi. NAS tartibga soluvchi va soliq organlarini ma'lumot bilan ta'minlash uchun mo'ljallanganligi sababli, UFRS hisoboti investorlar va kreditorlar tomonidan investitsiya qarorlarini qabul qilish uchun ko'proq qo'llaniladi.

O‘zbekiston Respublikasida MHXSlarga o‘tishda milliy iqtisodiyotimizga xos va mos yo‘l tanlandi. Bu xalqaro standartlarga monand keladigan buxgalteriya hisobi bo‘yicha milliy standartlarni ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy qilish yo‘li bo‘ldi. Hozirgi kunda ishlab chiqilgan milliy standartlarimiz xalqaro standartlarga muvofiq keladi. Shu bilan bir qatorda hozirgi kunda korporativ boshqaruvga asoslangan aksiyadorlik jamiyatlarida xalqaro standartlar asosida moliyaviy hisobotni tuzishga o‘tilmoqda. Bu esa bevosita xalqaro standartlar asosida moliyaviy hisobotni tuzish yoki milliy standartlar asosida tuzilgan moliyaviy hisobotni xalqaro standartlarga transformatsiya qilish orqali erishilishi mumkin. Birinchi yo‘l xalqaro standartlar asosida to‘g‘ri va sifatli moliyaviy hisobot tuzishga erishishni ta'minlaydi. Ikkinchi yo‘lda esa transformatsiya jarayonida ko‘plab muammo va to‘siqlarga duch kelish mumkin. Lekin ikkita yo‘lning yechimi ham xalqaro standartlarning mazmun va mohiyatini chuqur o‘rganish, uning metodologik masalalarini qo‘llash, milliy standartlarimizni imkon qadar xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish, dunyo universitetlarida o‘qitilayotgan «Moliyaviy buxgalteriya hisobi va hisoboti» fanini o‘rganish, ingliz tilidagi adabiyotlarni o‘zbek tiliga tarjima qilish, buxgalteriya hisobi sohasida xalqaro atamalarni qabul qilish, amaliyotchi xodimlar va ilmiy tadqiqotchilarni xorijiy mamlakatlarda tajriba almashinishini tashkil etish va amaliyotchi buxgalterlarni sertifikatlash ishlarini yo‘lga qo‘yishda kerak bo‘ladi.

Xalqaro miqyosda chuqurlashib borayotgan iqtisodiy inqiroz iqtisodiyotning barcha tarmoqlariga ta'sir ko'rsatmoqda. Bunday sharoitda aholining barqaror o'sishi, iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga erishish, aholi farovonligini ta'minlash, doimiy ish o'rinlari yaratish kabi masalalar kun tartibidan o'rin olgan. O'z navbatida, mamlakatimizda buxgalteriya hisobi va hisobot tizimini xalqaro moliyaviy hisobot standartlari talablariga moslashtirish iqtisodiyotni rivojlantirishning asosiy omillaridan biridir. Yuqoridagi talablarga muvofiq, ushbu maqolada men milliy va xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga muvofiq moliyaviy vositalarni hisobga olishdagi farqlarni ko'rib chiqdik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Deloitte Touche Tohmatsu Limited. (2017). «IFRSs—A guide to the Standards.» Deloitte. Link to Deloitte's IFRS Guide
2. Methodological issues of the Analysis of intellectual Property objects European Journal of Molecular & Clinical Medicine ISSN 2515-8260 Volume 7, Issue 2, 2020 A.J.Tuychiev, N.Rizaev
3. Directions of insurance organizations using international financial reporting standards in and increasing the financial sustainability ISSN 2181-1016 2020 yil 6 dekabr A.J.Tuychiev, M.Abdurimova
4. Nobes, C., & Parker, R. (2016). «Comparative International Accounting». Pearson.
5. Levitt, A. (2010). «Take on the Street: What Wall Street and Corporate America Don't Want You to Know.» Random House Trade Paperbacks.